

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b> Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari .....	108
<b>M.M.Teshaboyev</b> Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik .....	115

---

SIYOSAT

<b>H.M.Rasulov</b> Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida .....	120
<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
<b>B.M.Jo'raquziev</b> Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida .....	129
<b>D.A.Mamajonova</b> Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
<b>I.A.Raximov</b> "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" .....	138

---

TARIH

<b>E.G.Radjabov</b> Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini .....	142
<b>B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov</b> Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid .....	148
<b>X.S.Jumanazarov</b> Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
<b>S.R.Tolibova</b> O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) .....	159
<b>X.X.Azimov</b> Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) .....	167
<b>K.S.Karimov</b> Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
<b>N.Xudoyberdiyeva</b> Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi .....	176
<b>F.U.Temirov</b> Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati .....	179
<b>M.H.Isamiddinov</b> O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.G.Sabirdinov</b> Omon Muxtor romanlariga chizgilar .....	188
<b>M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov</b> Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar .....	191
<b>P.M.Axmadjonov</b> Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir .....	195
<b>G.H.Axmedova</b> Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....	200
<b>G.V.Abdullayeva</b> Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi .....	204

## O‘ZBEKISTONNING ANTIK DAVR MODDIY MADANIYATINING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

### ДРЕВНЯЯ МАТЕРИАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА УЗБЕКИСТАНА УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

### ANCIENT MATERIAL CULTURE OF UZBEKISTAN UNIQUE ASPECTS

<sup>1</sup>Isamiddinov Muxammad Hasanovich

<sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti professori, t.f.d.

#### Annotatsiya

*Milodiy birinchi asrlarida O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida, Hindiston yarim oroli, Afg‘oniston, janubiy O‘zbekiston va janubiy Tojikiston hududlarida yirik Kushonlar imperiyasi, uning g‘arbiy qismlari, Eron, Turkmaniston va Qoradengizbo‘yi atroflarida Parfiya imperiyasi joylashgan bo‘lib, ularda ellinistik madaniyat va bu mamlakatlarning shimolida yirik yarim dehqon, yarim chorvador davlatlarning uyushmasi - Qang‘ davlati hududlarida “ellinlashgan madaniyat” vujudga kelgan edi.*

#### Аннотация

*В первые века нашей эры на территории юга Узбекистана и Таджикистана, Афганистане и Индийском континенте возникла Кушанская империя, на территории Ирана, Туркменистана и к западу от них древняя Парфия, с эллинистической культурой, а на севере от Амударьи, были полу земледельческие, полу кочевнические государства, объединенное в крупный конгломерат Кангюй, на территории которого была распространена «эллинизированная культура».*

#### Abstract

*In the first centuries AD, there was a large Kushan Empire in the southern regions of Central Asia, the Indian Peninsula, Afghanistan, southern Uzbekistan and southern Tajikistan, and the Parthian Empire in its western parts, Iran, Turkmenistan and the Black Sea region. , in them Hellenistic culture and "Hellenized culture" was created in the regions of Kang state, a union of large semi-peasant, semi-herding states in the north of these countries.*

**Kalit so‘zlar:** Kushonlar davlati, Parfiya, Qang‘, ellinizm, ellinistik madaniyat, ellinlashgan madaniyat, buddaviylik, kushonlar tangasi.

**Ключевые слова:** Кушанская государства, Парфия, Кангюй, эллинизм, эллинистическая культура, эллинизированная культура, буддизм, кушанская монета.

**Key words:** Kushan state, Parthia, Kang, Hellenism, Hellenistic culture, Hellenized culture, Buddhism, Kushan coins.

#### KIRISH

Milodning I-IV asrlarida ham O‘rta Osiyoning markaziy hududlarida antik davr madaniyati an‘analariga borib taqaladigan madaniyat hukmronlik qilar edi. Bunday holat ayniqsa O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida, Hindiston yarim oroli, Afg‘oniston, janubiy Tojikiston, janubiy O‘zbekiston hududlarini egallab olgan, yirik markazlashgan davlat, Kushonlar imperiyasi hududidagi moddiy madaniyatda yaqqol aks etgan edi. Imperiya davridagi madaniyat misli ko‘rilmagan taraqqiyot cho‘qqisiga chiqdi. Arxeologlar, ko‘p yillardan buyon kushanlar davriga oid obidalarda arxeologik qazishmalar olib borib, “kushonlar arxeologik kompleksi” degan arxeologik majmuani ajratishdiki, bu kompleks Markaziy Osiyoning janubiy qismlarida paydo bo‘lgan ellinizm madaniyati bilan buddaviylik dinining qorishuvi ta‘sirida vujudga kelgan madaniyat edi. Bu madaniyatni arxeologlarning ayrimlari “kushonlar madaniyati” deb aytishsa, boshqa arxeologlar “ellinizm madaniyati”, juda kamdan-kam hollarda “ellinlashgan madaniyat” deb ham aytishdi<sup>57</sup>.

Kushonlar imperiyasida vujudga kelgan madaniyatning Sug‘d hududlariga ta‘siri juda katta bo‘lgan. Bunday ta‘sir kulolchilik komplekslarini har ikki hududda ham deyarli bir xil rivojlanganligida, ayniqsa terrakota haykalchalarining tasvirlarini har ikki hududni bir-biriga juda yaqinligini alohida ta‘kidlagan bo‘lar edik.

O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy hududlarida Kaspiy dengizining janubiy va janubi-sharqiy qismida miloddan ilgarigi taxminan 250 yilda tashkil topgan qadimiy Parfiya davlati bo‘lib, o‘z davrida Messopotamiyadan Hindistongacha bo‘lgan territoriyani, sharqiy satrapliklarni o‘ziga bo‘y

<sup>57</sup> Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. М.: “Наука”, 1977. -296 с.

so'ndirgan edi<sup>58</sup>. Milodning I asrlarida Parfiyaning qudrati yanada ortib, Rim imperiyasining xavfli raqibiga aylangan. Bu davlat hududida ham ellinlashgan madaniyat xuddi rivojlangan ellinizm davridagiday saqlanib qolgan edi. YA'ni bu yerda madaniyatdagi an'anaviylik ancha muqim davom etganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham madaniyatda bo'lgan katta o'zgarishlar u qadar ko'rinmaydi. Parfiyaning moddiy madaniyati Sug'd hududlari va Xorazmga juda yaqin bo'lgan<sup>59</sup>. Ayniqsa bu imperiyaning shimoli-sharqiy hududlarini moddiy madaniyati xuddi Qarshi vohasining moddiy madaniyatiga o'xshab ketishi ko'p olimlar tomonidan ta'kidlangan<sup>60</sup>.

Bu har ikki imperiya, ya'ni Kushanlar imperiyasi bilan Parfiyaning rivojlanishiga, ularning davlatchilik siyosatiga va tuzumiga faqat shimoldan va shimoli-sharqiy hududlardan tahdid bo'lishi mumkin edi. Buni o'z paytida payqagan bu davlatlarning podshohlari imkoni boricha chorvador aholining kelishi mumkin bo'lgan yo'llariga ko'ndalang yo'nalishda mudofaa istehkomlarini qurishdi. Bu O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy hududlarida qurilgan "Antioh devori" deysizmi, Surxondaryo viloyati bilan Qashqadaryo o'rtasidagi Hisor tog'laridan o'tgan kushanlar imperiyasining mudofaa inshootlari deysizmi<sup>61</sup>, yoki Samarqand vohasining shimoliy qismidan o'rab olgan "Kanpir devor" deysizmi, bularning hammasi yirik imperiyalarning xavfsizligini saqlash uchun, chorvadorlar yo'lini to'sish uchun qurilgan inshootlar edi. Bu yirik imperiyalarning tinch va osoyishta turmushini to'satdan buzishi mumkin bo'lgan kuch faqat shimoli-sharqiy hududlardan otliq, qilich va xanjar bilan qurollangan chorvadorlarning kirib kelishi xavfi doimo ham yuqori bo'lgan. Faqat shunday kuchgina bunday yirik davlatlarning harbiy kuch-qudratini sindirishi mumkin edi.

Shuning uchun ham bunday xavfga qarshi xuddi yuqorida aytilganiday mudofaa inshootlarini qurish yo'li bilan bu xavfni biroz bo'lsa ham oldini olishi mumkin edi.

O'zini shimol tomondan ancha mustahkam toshdevorlar bilan o'rab olgan Kushanlar imperiyasida yaqin 400 yil davom etgan tinchlik va osoyishta hayot bu davlat hududida chinakam rivojlangan shahar madaniyatini vujudga kelishiga, budda dinini taraqqiy etishiga olib keldi<sup>62</sup>. Bu hududda olib borilgan arxeologik ishlanishlar tufayli rivojlangan shaharsozlik madaniyatini, buddaviylik dini bilan yo'g'irilgan ellinistik madaniyat qoldiqlari ochib o'rganildi<sup>63</sup>. Aynan kushonlar davri madaniyatiga oid yodgorliklardan biri Amudaryoning o'ng qirg'og'ida qad ko'targan Kanpirtepa degan yodgorlik E.V.Rtveladze tomonidan to'liq ochib o'rganildi va bu yodgorlikning moddiy madaniyati mukammal o'rganildi<sup>64</sup>. Eng muhimi, antik davr madaniyati qizil angobli kosa va qadahlar, likoplar, terrakota haykalchalari Sug'dning xuddi shunday buyumlariga juda o'xshash edi.

Xuddi yuqorida ta'riflanganiday shaharsozlik madaniyati Sug'dning shahar va qishloqlaridagi arxeologik qazishmalar davrida ochib o'rganildi. Ayniqsa Qarshi vohasining asosiy poytaxt shahri xarobasi Yerqo'rg'onda olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida kulollar mahallasi o'rganilgan bo'lib, aynan milodning I-IV asrlari qatlamlarida hayotning bir tekisda davom etganligini, tinchlik-osoyishtalik ko'p yillar mobaynida davom etganligidan bilib olishimiz mumkin. Ayniqsa, bu davrdagi kulolchilik hunarmandchiligi o'z rivojlanishida eng yuqori cho'qqilarga chiqqanligini ko'ramiz. Kulolchilik buyumlarini yasash uchun nihoyatda yaxshi gilmoya ishlatib, idishlar tayyorlash uchun tayyorlangan loyga juda yaxshi ishlov berilgani barcha sopol buyumlarda o'z aksini topgan. Shu davrning madaniy qatlamlaridan olingan idishlarning parchalari, o'zining juda ham yupqa qilib yasalganligi bilan, ustidan qizil angob berib, yana sayqallanganligi bilan

<sup>58</sup> Кошеленко Г.А. Культура Парфии. М.: 1966; Его же. Парфянская фортификация. – СА. М.: 1963, №2.

<sup>59</sup> Пилипко В.Н. Поселения северо-западной Бактрии. Ашхабад.: «Ылым», 1985 г. Табл. XLIII-XLIX/

<sup>60</sup> Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашка-дарьи с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965-1966 гг.)). Т.: 1973; Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III-VI вв.). Т.: Фан, 1981.

<sup>61</sup> Рахмонов Ш. Тавка (Ўзбекистоннинг қадимги божхона иншоотлари тарихига доир). Т.: 2001. -142 б.

<sup>62</sup> Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. М.: «Наука», 1977. – 296 с.

<sup>63</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент.: 1966; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана (с древнейших времен до середины XIX в.). М. М.: 1965; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Т.: "Фан", 1990. С.41-119.

<sup>64</sup> Ртвеладзе Э.В. Тохаристанская археологическая экспедиция 1999-2009. Страницы истории. Ташкент.: 2009. - 100 с.

## TARIX

ajralib turadi<sup>65</sup>. Kulolchilikdagi bunday muvaffaqiyat albatta faqat rivojlangan shaharsozlik madaniyatigagina xosdir.

Xuddi shunga o'xshash madaniy qatlamlari bor yodgorliklar Qarshi vohasining Muydintepa yodgorligiga ham xos bo'lib, aynisa Muydintepa-II qatlamlarida juda yupqa qilib ishlangan kosalar, qadahlar albatta qizil angob bilan bo'yalgan va sayqallangan<sup>66</sup>. Antik davri kulolchiligi buyumlariga berilgan tavsifni faqat Muydintepa bilan chegaralansak noto'g'ri bo'lar edi. Chunki, antik davrining bu yuqori darajadagi madaniyati faqat bu bitta yodgorlikdan olingan kulolchilik buyumlari bilan tugamaydi. Miloddan ilgarigi II-I asrlariga oid ellinlashgan madaniyatning izlari butun Sug'd hududlari-shu jumladan Samarqand Sug'di va Qashqadaryoning yuqori oqimida ham ko'plab uchraydi. Xuddi shunday kulolchilik buyumlar kompleksi Kitob shahrining o'rnidagi yodgorlik Qalandartepadan ham topib o'rganilgan<sup>67</sup>. Kitob hududi bilan Qarshi vohasi o'rtasidagi masofa yaqin 70 km oshiq bo'lishiga qaramay, miloddan ilgarigi II-I asrlar va milodning I asrlariga oid qatlamlardan topilgan bu noyob manbalarning naqadar o'xshashligini ta'kidlamoqchimiz.

Yuqoridagiday o'xshashlikni Samarqand vohasi arxeologik yodgorliklari bilan Qashqadaryo vohasi havzasidagi yodgorliklarni kulolchilik buyumlarini va shuningdek terrakota haykalchalarini kuzatganda ham ko'rishimiz mumkin. Qarshi vohasidan yaqin 200 kilometr shimoldagi Jizzah vohasidagi arxeologik obidalaridan topilgan kulolchilik buyumlarining shakli, ularga berilgan angob, hamda sayqallash usullari orasida ham umuman farq yo'q<sup>68</sup>.

Ammo, kulolchilikdagi vohalar o'rtasidagi juda ham bir – biriga o'xshashlik holatining biroz bo'lsa ham o'zgargan jihati Buxoro vohasining kulolchilik komplekslari solishtirilganda ko'zga tashlanishi ancha seziladi. YA'ni Buxoro vohasidagi yodgorliklarning miloddan ilgarigi II-I asrlarining qatlamlarida va milodning I asrlari qatlamlarida anchagina yangi shakldagi kulolchilik buyumlarini paydo bo'lganligini ko'ramiz<sup>69</sup>. Buxoro vohasida antik davr an'analari saqlanib qolgan qismiga eng avvalo qadimiy sopol buyumlarining shakli bo'ladigan bo'lsa, qolganlari qizil, qora va jigar rangga bo'yash, uning ustidan sayqal berish odatini saqlanib qolganligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi an'analardan tashqari Buxoro vohasiga shimoliy va shimoli-sharqiy hududlardagi chorvador qabilalarga xos bo'lgan kulolchilik buyumlarining kirib kelganligini ko'rishimiz mumkin<sup>70</sup>.

Bundan farqli o'laroq Amudaryoning o'ng va chap qirg'oqlaridagi yodgorliklardan olingan materiallarda ham ellinizm an'analari ta'siri yaqqol sezilib turishi ma'lum<sup>71</sup>. Bunday shakl va rang berish usullarining bir xildaligidan tashqari milodning birinchi asrlaridan boshlab yirik likopsimon idishlarning chetki qismiga, yirik idishlarning tashqi tomoniga to'liqinsimon chizilgan naqshlar paydo bo'laboshlaganligini, janubiy Tojikistonning Yavan yodgorligining VII qatlamlari misolida ko'rishimiz mumkin<sup>72</sup>.

Xuddi shunday kulolchilikdagi madaniyat, ya'ni sopol idishlarni juda yupqa, yengil qilib ishlab, uning ustidan qizil rang berib sayqal berish texnologiyasi Sug'd hududlarida qanday bo'lsa, Farg'onada ham xuddi shunday bo'lgan. Sug'd va Farg'ona kulolchiligining bir-biridan farqi faqat ularning shaklini u qadar bir-birlariga to'g'ri kelmasligida edi. Bunday holatni nafaqat Farg'ona vodiysi kulolchilik mahsulotlarini Qashqadaryo Sug'di kulolchilik mahsulotlari bilan solishtirganda,

<sup>65</sup> Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). Ташкент.: "Фан", 1984, с.91-93; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана в VII вв. до н.э., VII в.н.э. Ташкент.: «Фан», 2000, с.175-181(ЕК-11, ЕК-12, ЕК-13).

<sup>66</sup> Кабанов С.К. Археологические работы 1948 г. в Каршинском оазисе. Тр.ИИА АН УзССР. Т.II. Ташкент.: 1950., с.95, табл.71.

<sup>67</sup> Крашенникова Н.И. Два комплекса керамики II-I вв. до н.э. из нижних слоев Китаба. – Т.: 1977. – с. 85.

<sup>68</sup> Пардаев М.Х., Пардаев А.Х., Пардаев Ш.М. Жиззах воҳасида шаҳар маданиятининг пайдо бўлиши ва ривжланиши босқичлари (ёзма ва манбалар асосида). Ўзбекистон археологияси. Самарқанд.: 2014. №1 (8). -15-39.

<sup>69</sup> Сулейманов Р.Х., Ураков Б. Результаты предварительного исследования античного городища селения Рамиш. ИМКУ. Вып. 13. – с.58, Рамиш – IV.

<sup>70</sup> Ураков Б. Керамика с городища Рамиштепа. ОНУ. – Т.: 1978, № 2. Рамиш – IV.

<sup>71</sup> Пайдаев Ш.Р. Материалы к изучению древних памятников Северной Бактрии. В сб. Древняя Бактрия. Вып. I. Л.: 1974; Ўша муаллиф. О генезисе штампованных орнаментов на керамике античной Бактрии. ОНУ, 1975, № 1.

<sup>72</sup> Зеймаль Т.И. Вахшская долина в древности и раннем средневековье (Археологические памятники и динамика ирригационных систем левобережья долины). Дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Л.: 1969. С. 237-238.

balki Samarqand Sug'di kulolchilik mahsulotlarini Qarshi vohasining kulolchilik mahsulotlari bilan solishtirganda ham seziladi. Chunki, aynan milodning I asrlaridan boshlab O'rta Osiyoning har qaysi vohalarining o'ziga xos kulolchiligi va kulolchilik idishlarining o'sha hudud aholisining ichki talabiga, didiga mos bo'lgan shakllari paydo bo'ladi<sup>73</sup>.

Ammo Xorazm vohasi arxeologiyasi yuqoridagilardan farqli o'laroq miloddan ilgarigi I-ming yillik o'rtalariga oid kulolchilik komplekslari O'rta Osiyoning boshqa hududlari bilan deyarli bir xil bo'lgan bo'lsa, miloddan ilgarigi IV-III asrlardan boshlab bu hududda mutlaqo boshqa madaniyat paydo bo'ldi-ki, uni arxeologlar o'z paytida "qang' madaniyati" deb aytishgan edi. Aynan shu madaniyatga tegishli idishlar ishlab-chiqarilganda yirik xumlar va xumchalar tashqi tomondan rangda spiralsimon shakldagi naqshlar bilan bezatilganligini ko'ramiz<sup>74</sup>. Albatta bunday bezakli idishlar na Baqtriya hududlarida va na Sug'd hududlarida umuman bo'lmagan edi. Ammo, Sirdaryobo'yi hududlarida, ayniqsa uning quyi qismlarida bunday naqshli idishlarni keng tarqalgan ekanligiga amin bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa miloddan ilgarigi I ming yillikning birinchi yarmidagi mozorlarda ko'proq andronova madaniyatining an'analari davom etib kelganligini ko'radigan bo'lsak, shu ming yillikning o'rtalaridan boshlab silindr-konus shaklidagi shahar madaniyatiga xos bo'lgan idishlar uchraydi<sup>75</sup>. Bu albatta biz ko'rayotgan davr va biz ko'rayotgan hudud emas.

Biz miloddan ilgarigi I ming yillik o'rtalarida quyi Sirdaryo bo'ylarida andronova madaniyatiga tegishli chorvadorlarning davomchilari - saklarning ananaviy idishlari kundalik hayotda keng qo'llanilganligini ko'ramiz. Shuningdek mahalliy shaharsozlik madaniyatining – silindr-konus shaklidagi kulolchilik buyumlari ham chorvador qabilalarining kundalik ehtiyojlarida keng foydalanilgan. Shuning uchun ham bu idishlar sak qabilalarining qabrlariga qo'yilgan, chunki, ularning nazarida insoniyat o'z o'limidan keyin "haqiqiy dunyo", "haqiqiy hayot" boshlanadi, degan tushuncha, hayol bilan yurganlar. Shuning uchun qabrlarga mayit qo'yilayotganda uning tirikligida ishlatib yurgan qurol-aslaha, uy-ro'zg'or buyumlari, ayollar bilan birga turli taqinchoqlari va h.k. lar qo'yilgan. Bunday tushunchalar o'sha davr qabilalarining deyarli barchasida bo'lgan.

Xorazm vohasidagi dehqon jamoalari bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi moddiy madaniyatning farqi ancha katta bo'lgan. Dehqon jamoalarining markaziy shaharlarida milodning I-IV asrlarida ham kangyuy madaniyatining ta'siri ancha katta bo'lganligini, ya'ni kangyuy madaniyatining an'analari saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday vorisiylikni milodning II-IV asrlaridagi Xorazmning poytaxt shahri xarobasi Tuproqal'a materiallaridan ham bilsa bo'ladi<sup>76</sup>.

Shu bilan birga bu hududlardagi dehqon jamoalarining hayotiga chorvadorlar madaniyatining ta'siri katta bo'lganligi ham ularning moddiy madaniyatida o'z aksini topgan<sup>77</sup>. Ammo, kundalik idish-tovoq, ro'zg'or buyumlari kabilarga ta'sir katta bo'lsa ham, ammo Xorazm vohasidagi vorisiylik diniy-ilohiy buyumlarda qat'iy davom etganligida yaqqol ko'rinadi. Ularni xuddi qadimgi davrlardagiday bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorazm vohasidagi antik davr madaniyatlarining rivojlanishini ko'rsatadigan yana bir asosiy belgilardan biri terrakota haykalchalarini, turli idishlarni chetiga antropomorf va zoomorf shaklidagi terrakota haykallarini yopishtirish keng tarqalganligi juda ko'plab Xorazm vohasi bo'yicha chiqarilgan adabiyotlardan ma'lumdir<sup>78</sup>.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoning barcha hududlarida miloddan ilgarigi II-I asrlarida keng tarqalgan ellinistik madaniyat va uning asoratlari keyingi davrlargacha, milodning I-IV asrlarigacha, hatto, Markaziy Sug'dning devoriy suratlarida yunonlar davri afsonalari bilan bog'liq ko'plab epizodlarni saqlanganligini ko'rish mumkin. Ellinistik madaniyatning tarqalishi faqat Aleksandr Makedonskiy bosib olgan hududlargina bo'lib qolmay, balki uning oyog'i yetmagan hududlar Xorazm, Buxoro, Toshkent vohalari va Farg'ona vodiysida ham bu madaniyatning

<sup>73</sup> Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). Ташкент.: «Фан», 1984,

<sup>74</sup> Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. В сб. Керамика Хорезма. ТХАЭЭ. Т. IV, М.: 1959, с.63-220.

<sup>75</sup> Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. (по материалам Уйгарака). М.: 1973. – 160 с.

<sup>76</sup> Топрак-кала.Дворец. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. М.: «Наука», 1984. -303с.

<sup>77</sup> Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I-тысячелетии до н.э. М.: 1971, рис.30, с. 125.

<sup>78</sup> Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: 1962, с.192.; Левина Л.М. Керамика нижней... рис.15. с. 187-189.

## TARIX

ta'sirini, uning asoratlari yaqqol ko'rinib turganligini ko'rish mumkin. Ammo, bu hududlardagi madaniyat Gretsiya, Rim, yoki O'rtayerdengizbo'yi mamlakatlardagiday "ellinistik madaniyat" emas, balki "ellinlashgan madaniyat" deb aytish mumkin bo'lgan darajada edi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. М.: "Наука", 1977. -296 с.
2. Кошеленко Г.А. Культура Парфии. М.: 1966; Его же. Парфянская фортификация. – СА. М.: 1963, №2.
3. Пилипко В.Н. Поселения северо-западной Бактрии. Ашхабад.: «Ылым», 1985 г. Табл.XLIII-XLIX/
4. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашка-дарьи с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965-1966 гг.)). Т.: 1973; Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III-VI вв.). Т.: Фан, 1981.
5. Рахмонов Ш. Тавка (Ўзбекистоннинг қадимги божхона иншоотлари тарихига доир). Т.: 2001. -142 б.
6. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры. М.: «Наука», 1977. – 296 с.
7. Пугаченкова Г.А. Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Ташкент.: 1966; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана (с древнейших времен до середины XIX в.). М. М.: 1965; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Т.: "Фан", 1990. С.41-119.
8. Ртвеладзе Э.В. Тохаристанская археологическая экспедиция 1999-2009. Страницы истории. Ташкент.: 2009. - 100 с.
9. Крашенинникова Н.И. Два комплекса керамики II-I вв. до н.э. из нижних слоев Китаба. – Т.: 1977. – с. 85.
10. Пардаев М.Ҳ., Пардаев А.Ҳ., Пардаев Ш.М. Жиззах воҳасида шаҳар маданиятининг пайдо бўлиши ва ривжланиши босқичлари (ёзма ва манбалар асосида). Ўзбекистон археологияси. Самарқанд.: 2014. №1 (8). -15-39.
11. Сулейманов Р.Х., Ураков Б. Результаты предварительного исследования античного городища селения Рамиш. ИМКУ. Вып. 13. – с.58, Рамиш – IV.
12. Ураков Б. Керамика с городища Рамиштепа. ОНУ. – Т.: 1978, № 2. Рамиш – IV.
13. Пидаев Ш.Р. Материалы к изучению древних памятников Северной Бактрии. В сб. Древняя Бактрия. Вып. I. Л.: 1974; Ўша муаллиф. О генезисе штампованных орнаментов на керамике античной Бактрии. ОНУ, 1975, № 1.
14. Зеймаль Т.И. Вахшская долина в древности и раннем средневековье (Археологические памятники и динамика ирригационных систем левобережья долины). Дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Л.: 1969. С. 237-238.
15. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). Ташкент.: «Фан», 1984,
16. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. В сб. Керамика Хорезма. ТХАЭЭ. Т. IV, М.: 1959, с.63-220.
17. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. (по материалам Уйгарака). М.: 1973. – 160 с.
18. Топрак-кала.Дворец. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. М.: «Наука», 1984. - 303с.
19. Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I-тысячелетии до н.э. М.: 1971, рис.30, с. 125.
20. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: 1962, с.192.; Левина Л.М. Керамика нижней... рис.15. с. 187-189.